

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUNUSXODJAYEV ZAIR SHAKIROVICH

**ER- XOTIN MUNOSABATIDA ROLLAR TAQSIMOTINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(turli turmush tajribasiga ega oilalar misolida)**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Yunusxodjayev Zair Shakirovich

Er-xotin munosabatida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (turli turmush tajribasiga ega oilalar misolida).....3

Юнусходжаев Заир Шакирович

Социально-психологические особенности распределения ролей в супружеских отношениях (на примере семей с разным жизненным опытом).....23

Yunuskhodzhaev Zair Shakirovich

Social and psychological characteristics of the distribution of roles in marital relations (on the example of families with different life experiences).....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUNUSXODJAYEV ZAIR SHAKIROVICH

**ER- XOTIN MUNOSABATIDA ROLLAR TAQSIMOTINING
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI
(turli turmush tajribasiga ega oilalar misolida)**

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/P319 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘rayeva Sohibjamol Norqobilovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Karimova Vasila Mamanasirovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Ma’mun universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___»_____kuni soat_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___»_____kuni tarqatildi.

(2025-yil «___»_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida oilaviy munosabatlar sohasida qadriyatlar transformatsiyasi tobora kuchayib bormoqda. Er-xotinlarning o'z oilasidagi rollar taqsimoti va unga aloqador ijtimoiy tasavvurlarning mazmuni muhim bo'lib, oilaviy rollarning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi oila mustahkamligiga xizmat qiladi. Bu borada an'anaviy oila va oilaviy hayot tarzining qadr-qimmatini, oilalardagi har bir shaxsning psixologik xususiyatlarini, oilaviy hayot dinamikasida juftliklarning o'zaro munosabatlarini, oilaviy tarbiyada ma'naviy-axloqiy an'analarni saqlab qolish, oilada mas'uliyat, o'z rolli pozitsiyalarini to'laqonli anglashning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish masalasi muhimdir. X avlod va millenniallar vakillari o'rtasida¹ tenglik nuqtayi nazarini kuchaytirish tendensiyalari sodir bo'lishi tufayli er-xotin munosabatida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tadqiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida er-xotin munosabatida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini Dunyoda oila instituti an'anaviy shakllardan tashqariga chiqa boshlagani hisobga olsak, ko'pgina jamiyatlarda oila ijtimoiy hayotning markazida qoladi. Buning sababi, oilaning nafaqat jamiyat, balki shaxs uchun ham muhim bo'lgan muayyan ijtimoiy funksiyalarni bajarishi balki, har qanday ijtimoiy institutning maqsadli vazifasi u yaratilgan va mavjud bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishi bilan belgilanganadi, bu esa er-xotin munosabatida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini alohida ilmiy tadqiq e'tish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda oilalar mustahkamligi barqarorlashtirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oilada yetuk shaxsni kamol toptirish mexanizmlarining uzviyligini ta'minlash bo'yicha zaruriy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash,... jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlash... oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila - sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish»² konseptual g'oyasi negizida oila mustahkamligini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalar belgilanganligi, ularni amalga oshirishda mazkur «Er-xotin munosabatida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzuga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi

¹ Strauss, William. *Millennials Rising: The Next Great Generation*, Cartoons by R.J. Matson, New York: Vintage Original, 2000 — 54-bet. ISBN 9780375707193. Gender stereotypes have changed: A cross-temporal meta-analysis of U.S. public opinion polls from 1946 to 2018 / A.H. Eagly, C.Nater, D.I.Miller, M. Kaufmann, S. Sczesny // *American Psychologist*. 2020. Vol. 75 (3). P. 301-315. DOI: 10.1037/amp0000494

² 2020-yil 18-fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»5938-sonli Prezident Farmoni, <https://lex.uz/docs/-4740345>

Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2023-yil 28-fevraldagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» PF-27-son Farmonlari 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 820-sonli Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston psixolog olimlaridan F.A.Akramova, X.U.Abdusamatov, X.M.Alimov, Sh.R.Barotov, M.G.Davletshin, R.X.Dushanov, M.X.Fayziyeva, E.G'.G'oziyev, D.H.Hazratqulova, M.O.Jalolova, Sh.Sh.Jo'rayeva, V.M.Karimova, M.M.Mamatov, G.Niyazmetova, T.B.Norimbetov, N.T.Norkulova, D.M.Nuraliyeva, B.R.Qodirov, A.T.Qodirova, G.A.Qurbonova, Sh.M.Rustamova, F.R.Ro'ziqulov, M.S.Salayeva, N.A.Sog'inov, B.M.Umarov, E.Sh.Usmanov, M.A.Utepbergenov, H.Sh.Sharafutdinova, G'.B.Shoumarov va boshqalar o'z tadqiqotlarida oilaga psixologik xizmat ko'rsatish, zamonaviy milliy oila va uning psixologik xususiyatlari, oilaviy status va rollar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi, yosh oilalarda yuzaga keladigan er-xotin nizolarining etnik xususiyatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, nikoh to'yi bilan bog'liq o'zbek etnopsixologiyasining ba'zi ko'rinishlariga oid diqqatga sazovor ilmiy fikrlarni bayon qildilar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Yu.Ye.Aleshina, T.V.Andreyeva, G.M.Andreyeva, T.N.Andreyeva, A.I.Antonov, N.N.Bogomolova, S.I.Golod, Ye.P.Ilin, P.P.Kalinin, O.A.Karabanova, J.A.Korostileva, V.D.Moskalenko, N.N.Obozov, B.D.Parigin, K.Rodjers, V.Satir, A.N.Volkova, Ye.V.Zmanovskaya, L.B.Shneyder, Ye.V.Shoroxova, A.B.Chernikova ilmiy tadqiqotlarida oilaviy munosabatlarni kompleks o'rganish bo'yicha sezilarli ilmiy-tadqiqotlar o'z aksini topgan.

Xorijlik olimlardan P.Boennen, Ye.Burgess, S.Djarsko, A.Findley, M.Kobit, A.Mixi-Ramires, M.Odema, E.G.Ravenshtay, R.Rodjerson, G.Roland va boshqalar er-

xotinning oilaviy hayot dinamikasidagi rollar pozitsiyasini, rollar taqsimlanishining oilaviy munosabatlarga ta'sirini ilmiy tadqiq etishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining hamkorlikda Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-2014-0913113120-raqamli "O'zbekistonda oila rivojlanishi va yetuk avlodni tarbiyalashning ma'naviy-huquqiy, tibbiy-psixologik va demografik omillarini o'rganish" mavzusidagi (2020-2023 y.y.) amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: turmush tajribasi turlicha bo'lgan er-xotinlarda rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

er-xotin munosabatlariga oid falsafiy-nazariy manbalarni tahlil qilish va oilada erkaklar va ayollar rollar taqsimoti shakllanishidagi ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o'rganish;

oilaning davriy sikllari o'zgarishi ta'sirida er-xotin munosabatlaridagi rollar taqsimoti ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish;

turli turmush tajribasiga ega oilalarda rollar taqsimotini davriylik va gender xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish;

oilaviy hayotda er-xotin rollari taqsimotining psixoprognostik modelini tayyorlash va uning asosida juftliklarda rolli identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida turmush tajribasi turlicha bo'lgan er-xotinlarda rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni olingan bo'lib, Surxondaryo viloyatidan 194 nafar (97 juft er-xotin), Samarqand viloyatidan 218 nafar (109 juft er-xotin) va Jizzax viloyatidan 188 nafar (94 juft er-xotin), jami 600 nafar turli turmush tajribasiga ega juftliklar tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini turli turmush tajribasiga ega er-xotinlarda rollar taqsimoti ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat metodlari, Yu.Ye.Aleshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayaning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasi, hammualliflikdagi «Oilada juftliklarning rollar taqsimotini o'rganish» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi (S.N.Jo'rayeva, Z.Sh.Yunusxodjayev), V.V.Stolin va S.R.Pantileyevning «O'z-o'ziga bo'lgan munosabat» test-so'rovnomasi, S.Yu.Kupryanovanning «Oilaviy muhit shkalasi» metodikasi, V.V.Stolin, T.M.Romanov, G.G.Butenkoning «Oilaviy hayotdan qoniqish» metodikalaridan foydalanilgan. Olingan natijalarining statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan: Kolmogorov-Smirnovning Z-mezoni, Mann-Uitnning U-mezoni, Kruskal-Uollisning H-mezoni hamda Spirmenning r-korrelyatsiya koeffitsienti orqali tasdiqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

er-xotin munosabatlariga oid falsafiy-nazariy manbalarni o'rganish va oilada rollar taqsimoti shakllanishining ijtimoiy xususiyatlarini so'rovnoma orqali tahlil qilish

yordamida erkaklarda shaxsiy mas'uliyat, tashabbuskorlik, moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etish hamda nizolarni ko'proq bostirish ustunligi, romantik munosabatlarni tashkil etish, bola tarbiyasi va ro'zg'or yumushlarida ham erkaklar, ham ayollarda birdek kuzatilishi, oila siklida rollar taqsimoti uzoq vaqt birgalikda turmush kechirish bilan bog'liqligi asoslangan;

oilaning davriy o'zgarishi ta'sirida er-xotin munosabatlaridagi rollar taqsimoti ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilib, natijada ayollarda 1-5 yillik siklda nizolashuvchanlik, 6-10 yillik siklda tashkilotchilik va nazorat xususiyatlari, 11-15 yillik siklda uyg'unlik, ekspressivlik, mustaqillik, muvaffaqiyat, intellektual-madaniy hamda faol dam olish orientatsiyalari, axloq va tarbiya, erkaklarda esa 1-siklda o'z-o'zini boshqarish va o'ziga bog'langanlik, 2-siklda oilaviy hayotdan qoniqish, 3-siklda ichki samimiylik, o'zini baholash, ichki nizolilik ko'rsatkichlarida yaqqol tafovutlar aniqlangan;

o'zini baholash, ichki nizolilik darajasining ortishi natijasida bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, oilaning ta'minlanishi pasayishi oqibatida ichki samimiylik, o'zini ayblash ortishi, o'z-o'ziga ishonch kamayishi, uy sohibi va sohibasi rolining yetishmasligi ichki samimiylik va ichki nizolilikni keltirib chiqaruvchi omil ekanligi dalillangan;

oilaviy hayotda er va xotin rollari taqsimotining psixoprognoztik modeli tayyorlanib, uning asosida juftliklarda rolli identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli turmush tajribasiga ega er-xotin munosabatlarida rollar taqsimoti namoyon bo'lishining ijtimoiy xususiyatlari borasidagi nazariy qarashlar amaliy natijalar asnosida boyitilib qo'llash uchun kiritilgan;

oilaning davriy o'zgarishi ta'sirida er-xotin munosabatlaridagi rollar taqsimoti ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilib, natijada oilaviy hayotda er va xotin rollari taqsimotining psixoprognoztik modeli ishlab chiqilib, aprotatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy izlanishlarda ma'lumotlar xalqaro darajada o'zining ishonchli ekanini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali va bevosita tadqiqot obyektlarining xolis munosabatlari asosida to'planganligi; ilmiy tadqiqot maqsad va vazifalariga bevosita mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi usullarning qo'llanilganligi; respondentlar va so'raluvchilar guruhlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik qiymatlar matematik-statistik jihatdan ishonchli metodlar orqali tahlil etilganligi; xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi; olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan bevosita tadqiqotning ishonchliligi izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, dissertatsion tadqiqotni amalga oshirish mobaynida olingan natijalar va to'plangan nazariy ma'lumotlarning tahlili orqali rollar taqsimoti hodisasi haqida shu kungacha sotsiologiya, oilashunoslik, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy psixologiya, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, er-xotinlik psixologiyasida mavjud bo'lgan qarashlar, nazariyalar yangi tahliliy-qiyosiy ma'lumotlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati er-xotin munosabatlarida rollar taqsimoti xususiyatlarini tadqiq etish natijasida qo‘lga kiritilgan natijalar oliy ta‘lim muassasalarida «Oila psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya» fanlari o‘qitilishini mazmunan boyitishga, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalardan amaliyotchi psixologlar samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Er-xotin munosabatlarida rollar taqsimoti xususiyatlarini tadqiq etish orqali olingan natijalar asosida:

juftliklarda turli hayotiy vaziyat hamda bir oila davridan ikkinchi oila yiliga o‘tishdagi stimuli vaziyatlar ta‘sirida «o‘zini ayblash», «o‘ziga munosabat» kabi ko‘rsatkichlarda dinamik holatlar kuzatilishi natijasida shaxsning ehtiyojlar hamda motivatsion sohasidagi o‘zgarishlarning tub qadriyatlar bilan to‘qnashuvi va «o‘zini o‘zini aktuallashtirgan» holda realizatsiya qilish paytdagi «intim kechinmalari» oila siklida rollar taqsimotining ijtimoiy-psixologik sharti sifatida asoslangan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-sentyabrdagi PM-199-sonli buyrug‘i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 18-sentyabrdagi PM-199-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada juftliklarda bir oila davridan ikkinchi oila yiliga o‘tishdagi stimuli vaziyatlar ta‘sirida rollar taqsimoti dinamikasining ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etish imkoniyati tasdiqlangan;

oilaviy hayot dinamikasidagi «uyg‘unlik» omili ta‘sirida turli turmush tajribasiga ega oilalardagi juftliklarda «oiladan qoniqish» darajasi vaziyatli ko‘rinish olishi dalillangani holda rollar taqsimoti ritmikasında «oiladagi emotsional muhit», «intim sheriklik», «farzand tarbiyasi», «tashkiliy-madaniy orientatsiya» ko‘rsatkichlarida er-xotin rollarining teng ko‘rinish olishi aniqlangan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-sentyabrdagi PM-199-sonli buyrug‘i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 18-sentyabrdagi PM-199-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada rollar taqsimlanish dinamikasidagi er-xotin rollarining tenglik prinsipida ustuvorlik qiluvchi umumiy rolli tuzilmalarni o‘rganish imkoniyati izohlangan;

turmush stajining ortib borishi hisobiga ayollarning rolli maqomlarida «uy bekasi», «bola tarbiyasi», «maishiy-xo‘jalik», erkaklarning «moddiy ta‘minot», «jinsiy ittifoq», «emotsional muhit» omillarini uyg‘unlashtirish orqali harakatlarni refleksiv tarzda yuzaga chiqishi isbotlangan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-sentyabrdagi PM-199-sonli buyrug‘i bilan «Oila psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 18-sentyabrdagi PM-199-a-son ma‘lumotnomasi). Natijada oiladagi rollar taqsimoti ritmikasında er va xotinlar rollari ijtimoiy psixologik determinantlarini tahlil qilish mezonlari keltirilgan;

oilaviy hayot sikli dinamikasidagi proporsionallik omili natijasida 1-5 yillik oilalarda «o‘zaro nazorat», «oilaning moddiy ta‘minlashi», «jinsiy sheriklik», 6-10

yillik oilalarda «nizoga kirishish», «muvaffaqiyatga yo‘nalganlik», «ekspressivlik», 11-15 yillik oilalarda «bola tarbiyasi», «uy sohibi va sohibasi», «oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish» rollarini o‘zlashtirilganligi asosida namoyon bo‘lishi aniqlangan takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-sentyabrdagi PM-199-sonli buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan. (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 18-sentyabrdagi PM-199-a-son ma’lumotnomasi). Natijada turli turmush stajiga ega bo‘lgan oilalardagi rollar almashinuvi hamda taqsimlanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ustuvor rolli pozitsiyalarni empirik tadqiq etish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 11 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, ulardan 1 tasi uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (ulardan 3 tasi xorijiy nashrlarda).

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqotning hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oilada er va xotin ijtimoiy rollariga oid psixologik nazariyalar tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida oilada er-xotin munosabatlarida rollar taqsimoti dinamikasi xususida sharq mutafakkirlarining qarashlarining ilmiy-nazariy asoslari, oila va oilaviy muammosining psixologik tahlili, er-xotin munosabatlaridagi o‘zaro ta’sir shakllarini tadqiq etishning zarurati muammosining O‘zbekistonda, yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida o‘rganilish holatiga e’tibor qaratilgan, Sharq mutafakkirlari asarlarida er-xotin munosabatlaridagi rollar taqsimoti masalalarining yoritilishi, er-xotin orasidagi o‘zaro munosabatlar shakllanishga doir psixologik tadqiqotlar tahlili keltirilgan, rollar taqsimotining birdamlik darajasiga ko‘ra oilalar tipologiyasi va bob bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan.

Oiladagi rol munosabatlarining o‘zgarishi oila va nikoh munosabatlarini zamonaviy qayta qurishning eng muhim bosqichidir. Hozirgi vaqtda nikoh va oilaviy munosabatlarni, shu jumladan rol munosabatlarini tartibga soluvchi normalarning


noaniqligi zamonaviy oila uchun bir qator ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ulardan eng muhimi tashqi rolli o‘zaro ta’sirning har bir tomonini tanlash va erkakning oiladagi rol xatti-harakatlarining turli jihatlariga munosabatini shakllantirishdir.

Rol tuzilmasining paydo bo‘lish jarayoni uning oilada ijtimoiy-psixologik jamoa sifatida shakllanishi, turmush o‘rtoqlarning bir-biriga moslashishi va oilaviy hayot tarzi rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Rol xulq-atvorining turli me’yorlari va shakllari mavjudligini hisobga olgan holda bu jarayon turmush o‘rtoqlarning shaxslararo munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Dissertatsiyaning «**Oilada er-xotin munosabatida rollar taqsimotini o‘rganishning metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida oilalardagi munosabatlar va zamonaviy jamiyatdagi tendensiyalarning ahamiyati, oilaviy munosabatlarning turli darajalariga ega bo‘lgan oilalarda psixologik birdamlikning ba’zi xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi izohi o‘z aksini topgan.

Juftliklardagi munosabatlar dinamik kechishining psixologik tabiati o‘rganilganda, tadqiqotchilar oilaviy hayot tarzining kechishiga ta’sir etuvchi juftliklarning yoshi, nikohga ma’naviy tayyorgarlik darajasi, farzandlar soni hamda oila a’zolarining turmush staji kabi omillarni alohida qayd etib o‘tgan.

Dissertatsiyaning «**Turli turmush tajribasiga ega oilalarda rollar taqsimotiga ta’sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar diagnostikasi**» deb nomlangan uchinchi bobida turli turmush tajribasiga ega oilalarda turmush o‘rtoqlarning rollar dinamikasiga ta’sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar, oilada er-xotin munosabatida rollar taqsimoti dinamikasida nikohdan qoniqish omilining jins tafovutlari xususiyatlari, oilaviy munosabatlarda rollar taqsimotining oila dinamikasi bo‘yicha farqlanishi diagnostikasi o‘tkazdik.



1-rasm. «Turmush tajribasi ortgan sari oilada rollar teng taqsimlanadi» mulohazasiga berilgan javoblar, n=600

1-rasmda mualliflikda ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma orqali «Turmush tajribasi ortgan sari oilada rollar teng taqsimlanadi» mulohazasiga berilgan javoblar berilgan, juftliklarning hayot dinamikasidagi rollar taqsimotini ijtimoiy va psixologik tomonlarini o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning yordamida er va xotinning oilaviy rollar bo‘yicha turmushning turli yillardagi o‘zgarish tendensiyasiga

ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarga doir fikrlarini bilish mumkin bo'ldi.

Tadqiqotimizdan o'rin olgan turmush tajribasi ortgan sari oilada rollar teng taqsimlanadi mazmunidagi mulohaga berilgan javoblarni kuzatar ekanmiz, 153 ta (25,5%) respondentlar nazdida rollarning teng taqsimlanishi turmush yillariga bog'liq bo'larkan. Ushbu mulohazaga yo'q, doimo erkak kishida ustunlik bo'ladi deb javob berganlar 352 nafar (58,7%) ni tashkil etsa, rollar taqsimlanishi oiladagi muhitga bog'liq degan fikrni bildirganlar 95 tani (15,8%) ko'rsatmoqda. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, respondentlar fikricha turmush tajribasi ortgani oilada erkak mavqeyining mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin ekan.

1-jadvalda «Oilada rollarni egallash asosan bolalikdagi tarbiyaga bog'liq» mulohazasiga berilgan javoblar keltirilgan.

1-jadval

«Oilada rollarni egallash asosan bolalikdagi tarbiyaga bog'liq» mulohazasiga berilgan javoblar (n=600)

Tasdiqlar	Son	Foizda
Ha, albatta	246 ta	41,0%
Yo'q, qo'shilmayman	61 ta	10,2%
Bo'lishi mumkin	293 ta	48,8%
Jami	600 ta	100,0%

Oilada rollarni egallash asosan bolalikdagi tarbiyaga bog'liq deb atalgan mulohazaga, ha albatta deb hisoblaganlar 246 ta (41,0%), yo'q qo'shilmayman deganlar 61 ta (10,2%), bo'lishi mumkin deb hisoblaydiganlar 293 tani (48,8%) ko'rsatmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, respondentlar oilaviy muhit ta'sirini birlamchi hisoblab, tarbiya aspekti oiladagi rollarni anglashda xizmat qilishi mumkin, degan xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

2-jadval

«Oiladagi barcha mas'uliyat erkakning zimmasida bo'ladi» mulohazasiga berilgan javoblar (n=600)

Tasdiqlar	Son	Foizda
Qo'shilaman	108 ta	18,0%
Qo'shilmayman	249 ta	41,5%
Qisman qo'shilaman	243 ta	40,5%
Jami	600 ta	100,0%

Oiladagi barcha mas'uliyat erkakning zimmasida bo'ladi qabilidagi fikrga 108 ta (18,0%) qo'shilaman, 249 ta (41,5%) qo'shilmayman hamda 243 ta (40,5%) qisman qo'shilmayman mulohazasini bildirgan. Natijalar tahlilidan ko'rinadiki, oiladagi barcha mas'uliyatga nafaqat erkak, balki ayol va boshqa oila a'zolari ham birdek mas'uliyatli, javobgar bo'lishi anglashilmoqda.

**«Bolalarning tarbiyasi, ro‘zg‘or yumushlariga doim ayol kishi mas‘ul»
mulohazasiga berilgan javoblar (n=600)**

Tasdiqlar	Son	Foizda
Ha, albatta	188 ta	31,3%
Yo‘q, erkak mas‘ul	93 ta	15,5%
Er ham, ayol ham birdek mas‘ul bo‘lishi kerak	319 ta	53,2%
Jami	600 ta	100,0%

Bolalarning tarbiyasi, ro‘zg‘or yumushlariga doim ayol kishi mas‘ul nomli berilgan tasdiqqa berilgan javoblar quyidagicha ko‘rinish oldi: ha albatta deb hisoblovchilar 188 ta (31,3%), yo‘q erkak mas‘ul deb hisoblovchilar 93 ta (15,5%) hamda er ham ayol ham birdek mas‘ul bo‘lishi kerak deb hisoblovchilar 319 ta (53,2%) ni tashkil etdi. Zamonaviy rollar taqsimotida bola tarbiyasida teng taqsimlanish tendensiyasi shakllanganidan dalolat beradi.



**2-rasm. «Oiladagi tashabbuslarga ko‘proq kim mas‘ul deb o‘ylaysiz?»
savoliga berilgan javoblar (n=600)**

Oiladagi tashabbuslarga ko‘proq kim mas‘ul deb o‘ylaysiz mazmunidagi savolga ko‘proq erkaklar deb hisoblovchilar 451 ta (75,2%), ayollar deb hisoblovchilar 36 ta (6,0%), er ham ayol ham birdek tashabbuskor bo‘lishi kerak deb sanovchilar 113 ta (18,8%) tashkil etdi. Oiladagi tashabbus pozitsiyasini bugungi zamonaviy oila transformatsiyasida nafaqat erkak, balki ayol ham egallashi kuzatilmoqda.

Oiladagi moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etishga ko‘proq kim mas‘ulligi borasida ham fikrlar so‘ralganda erkaklar deb hisoblovchilar 319 ta (53,2%), ayollar deb 88 nafar (14,7%) hamda erkak va ayol birdek deb o‘ylovchilar 193 ta (32,2%) ekani oydinlashdi. Raqamlar tahliliga yuzlanar ekanmiz, oiladagi moddiy ta‘minot azaldan erkak zimmasida bo‘lgani bois, erkakni moddiy qiyinchiliklarning xaloskori bo‘lishini tabiiy deb hisoblovchilar ustunlik qilishdi.

4-jadval

«Oiladagi moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etishga ko‘proq kim mas’ul deb o‘ylasiz?» savoliga berilgan javoblar (n=600)

Tasdiqlar	Son	Foiz
Erkaklar	319 ta	53,2%
Ayollar	88 ta	14,7%
Ham erkak, ham ayol birdek mas'ul	193 ta	32,2%
Jami:	600 ta	100,0%


Oilalar sonining ortib borishi hisobiga ayol hamda erkakni moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi rolini birdek e’tirof etuvchilar ham yo‘q emasligi ma’lum tadqiqotda aniqlandi.

5-jadval

«Oiladagi nizolarni ko‘proq kim bostirishi kerak?» mulohazasiga berilgan javoblar (n=600)

Tasdiqlar	Son	Foiz
Erkaklar	356 ta	59,3%
Ayollar	82 ta	13,6%
Ham erkak, ham ayol ikkalasi ham	162 ta	27,1%
Jami:	600 ta	100,0%

Oiladagi nizolarni ko‘proq kim bostirishi kerakligi respondentlardan so‘ralganda erkaklar deb hisoblovchilar 356 ta (59,3%), ayollar deb sanovchilar 82 ta (13,6%) hamda erkak va ayol birdek deb o‘ylovchilar 162 ta (27,1%) ekani oydinlashdi. Oiladagi nizolar rollar nomutanosibligi, har kim odz rolini to‘g‘ri bajarmasligi kabi maishiy omillar ta’sirida ham yuzaga kelishi mumkinligini inobatga olgan holda, respondentlar og‘ir tabiat vakillarida ushbu turdagi nizolarni konstruktiv tarzda hal etishda ko‘proq umidni ko‘rishmoqda.



3-rasm. «Oilada rollar to‘g‘ri taqsimlanishida ko‘proq kim javobgarlikni o‘z bo‘yniga olgani ma‘qul?» mulohazasiga berilgan javoblar (n=600)

So‘rovnomamizdan o‘rin olgan oilada rollar to‘g‘ri taqsimlanishida ko‘proq kim javobgarlikni o‘z bo‘yniga olgani ma‘qulgi haqida respondentlardan so‘ralganda erkaklar deb hisoblovchilar 309 ta (51,5%), ayollar deb sanovchilar 40 ta (6,66%)

hamda erkak va ayol birdek deb o'yllovchilar 260 ta (43,3%) ekani ma'lum bo'ldi. Bu natijalar orqali oilada rollar taqsimlanishida erkaklarning roli e'tirof etilgani bilan bir qatorda, ayollarning ham o'rni erkaklardan kam emasligi ma'lum bo'ladi. Olingan ijtimoiy-psixologik so'rovnoma yuzasidan bildirilgan fikrlardan oiladagi er-xotinning munosabatlari dinamikasida rollar taqsimoti tengligi bilan bir qatorda erkaklar tomondagi ustunliklar moddiy, tashabbuskorlik, romantizm kabi jabhalarda namoyon bo'lishi aniqlanganlikni kuzatish mumkin.

6- jadval

V.V.Stolin va S.R.Pantileevning «O'z-o'ziga bo'lgan munosabat» test-shkalalarining jins tafovutlari, (Mann-Uitni mezoni asosida, N=600)

Ko'rsatkichlar	jinsi (o'rtacha ranglar)		U	p
	ayollar (n=300)	erkaklar (n=300)		
Ichki samimiylik	288,34	312,66	41351,500	0,084
O'z-o'ziga ishonch	332,92	268,08	35274,500	0,000**
O'z-o'zini boshqarish	310,75	290,25	41925,500	0,145
O'ziga bo'lgan munosabat	290,34	310,67	41950,500	0,147
O'zini baholash	330,85	270,16	35896,500	0,000**
O'zini qabul qilish	319,76	281,25	39223,500	0,382
O'ziga bog'langanlik	301,27	299,73	44770,000	0,913
Ichki nizolilik	315,96	285,04	40363,000	0,051
O'zini ayblash	271,94	329,06	36433,000	0,000**

Izoh: ** - $p < 0.01$

6-jadvalda o'z-o'ziga ishonch shkalasini tahlil qilganida ishonchli tafovutlar kuzatildi ($U=35274,500$; $p < 0,01$). Unga ko'ra ayollarda O'z-o'ziga ishonch erkaklarga qaraganda yuqori darajada bo'lar ekan. Mazkur holat ularning oilaviy hayotdagi turmush o'rtoq, ona, kelin rollarini faol ijro etishga kirishishi bilan ham bog'liq. Chunki rollar ijrosidagi faollik ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiribgina qolmay, o'zini baholash ko'rsatkichining ham ortishiga olib keladi. Fikrimiz isboti sifatida o'zini baholash shkalasida ham ishonchli tafovutlar kuzatilganligini keltirishimiz mumkin ($U=35896,500$; $p < 0,01$). Demak, ayollarda O'z-o'ziga ishonch va O'zini baholash erkaklarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi. O'zini ayblash ko'rsatkichida ham ayollar va erkaklar orasida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ($U=36433,000$; $p < 0,01$). Ya'ni erkaklarda O'zini ayblash ko'rsatkichi ayollardan ancha yuqori.

O'zbek oilalarida turmushda sodir bo'ladigan har qanday muammolarga javobgarlikni erkaklar o'z zimmasiga olishini, o'z-o'zini boshqarish, o'ziga bo'lgan munosabat, o'zini qabul qilish, o'ziga bog'langanlik shkalalarida ayollar va erkaklarda ishonchli tafovutlar kuzatilmadi. Ichki samimiylik ko'rsatkichida biroz yuqoriroq o'rtacha rangga ega, ammo bu sezilarli farq emasligi namoyon bo'ldi.

7- jadval

V.V.Stolin, T.M.Ramanov, G.G.Butenkoning «Oilaviy hayotdan qoniqish» so'rovnomasi, jins tafovutlari, (Mann-Uitni mezoni asosida, n-600)

Ko'rsatkichlar	jinsi (o'rtacha ranglar)		U	p
	ayollar (n=300)	erkaklar (n=300)		
Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi	302,22	298,78	44485,000	0,808

Izoh: $p > 0,05$

7-jadvalda «Oilaviy muhit shkalasi» metodikasi shkalalarining ayollar va erkaklar natijalari berilgan. Tadqiqot natijalarini tahlilidan oilaviy muhitga ayollar ham erkaklarda ham ishonchli statistik muhim tafovutlar kuzatilmadi ($U=44485,000$; $p > 0,05$). Unga ko'ra, oilaviy hayotdan qoniqish darajasi ayollar va erkaklarda bir xilda namoyon bo'lib, ushbu holat ularning oilada egallagan rollari bilan ham bevosita bog'liq. Bunga misol sifatida erkaklar o'zini oila boshlig'i sifatida qabul qilishini, yoki ayollar es o'zlarini uy-ro'zg'or ishlari va farzand tarbiyasida asosiy o'rin egallovchi obraz sifatida ko'rishlari aniqlandi.

8-jadval

«Oilaviy muhit shkalasi» metodikasining jins tafovutlari, (Mann-Uitni mezoni asosida, n-600)

Ko'rsatkichlar	jinsi (o'rtacha ranglar)		U	p
	ayollar (n=300)	erkaklar (n=300)		
Uyg'unlik	309,79	291,21	42212,500	0,179
Ekspressivlik	303,40	297,60	44130,500	0,675
Nizo	296,12	304,88	43686,000	0,528
Mustaqillik	298,74	302,26	44472,500	0,800
Muvaffaqiyat orientatsiyasi	303,91	297,09	43977,500	0,622
Intellektual-madaniy orientatsiya	298,46	302,54	44387,000	0,769
Faol dam olishga orientatsiya	296,43	304,57	43780,000	0,556
Axloq va tarbiya	294,08	306,92	43074,000	0,355
Tashkilotchilik	295,46	305,54	43489,000	0,467
Nazorat	298,25	302,75	44325,000	0,746

Izoh: $p < 0,05$

Ayollar va erkaklar o'rtasida statistik muhim tafovutlar aniqlanmadi. Bu shuni ko'rsatadiki, gender farqi ushbu sohalarda sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, yuqorida keltirilgan har bir ko'rsatkich shaxsning turli turmush tajribasi, ehtiyojlari, shaxslaro munosabatlari va sharoiti bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu bois

oilaviy muhit tarkibini yoritib beradigan ko'rsatkichlarni erkaklar va ayollarning oiladagi rollar taqsimoti bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmasligini izohlaymiz.

«Oilada rollar taqsimoti» metodikasi shkalalarining jins tafovutlarini o'rganish natijalarini quyidagi jadval ma'lumotlari 9-jadvalda berilgan.

9-jadval

**«Oilada rollar taqsimoti» metodikasi shkalalarining jins tafovutlari
(Mann-Uitni mezonida n=600)**

Ko'rsatkichlar	Jinsi (o'rtacha ranglar)		U	p
	ayollar (n=300)	erkaklar (n=300)		
Bola tarbiyasi	286,41	314,59	40772,500	0,053
Oiladagi emotsional muhit	289,58	311,42	41723,500	0,123
Oilaning moddiy ta'minlanishi	310,21	290,79	42086,500	0,170
Ko'ngil ochishlarni tashkil qilish	299,46	301,54	44687,500	0,883
Uy sohibi va sohibasi	299,77	301,24	44779,500	0,917
Jinsiy sheriklik	287,98	313,02	41243,500	0,078
Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish	301,53	299,48	44692,500	0,885

Izoh: $p < 0,05$

Bola tarbiyasi, oiladagi emotsional muhit, jinsiy sheriklik ko'rsatkichlarida ayollar va erkaklar natijalarida statistik muhim farqlar mavjud emas. Oilaning moddiy ta'minlanishi ko'rsatkichida ayollar biroz yuqoriroq o'rtacha rangga ega, ammo bu statistik jihattan muhim emas (42086,500; $p < 0,05$). Umuman olganda, ayollar va erkaklar natijalari bo'yicha statistik jihattan muhim farqlar mavjud emas.

